



Xitoyning xususiy qo'riqlash kompaniyalari Markaziy Osiyoda nima qilmoqda?

Odil Gafarov

So'zboshi

Xitoy global qudratga aylanib ulgurganiga qaramay, bu qanday sodir bo'lgani va qanday ma'no kasb xususida juda kam munozaralar mavjud. Ko'plar Xitoy o'z taraqqiyot modelini eksport qilib, boshqa davlatlarga majburan o'kazadi, degan fikrni ilgari suradi. Biroq xitoylik o'yinchilar mahalliy va an'anaviy shakllar, me'yorlar va amaliyotlarga moslashish va ularni o'zlashtirish asnosida, mahalliy ishtirokchilar va institutlar orqali ishlash yo'li bilan ham o'z ta'sirini kengaytirmoqda.

Ford jamg'armasining (Ford Foundation) ko'p yillik granti ko'magida Karnegi markazi dunyoning yetti mintaqasi — Afrika, Markaziy Osiyo, Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Tinch okeani, Janubiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyoda Xitoyning mintaqaga kirib borish strategiyalari bo'yicha innovatsion tadqiqot majmualarini ishga tushirdi. Loyiha ushbu murakkab dinamikani, jumladan, Xitoy kompaniyalarining Lotin Amerikasidagi mahalliy mehnat qonunchiligiga qanday moslashishi, Xitoy banklari va jamg'armalarining Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Sharqda an'anaviy islomiy moliya va kredit mahsulotlarini qanday o'rganayotganligi va xitoylik ishtirokchilarning

Markaziy Osiyoda mahalliy ishchilar malakasini oshirishga qanday ko'maklashayotganini izlarnishlar va strategik yig'ilishlar vositasida tadqiq etadi. Mahalliy voqelikka muvofiqlashtirilgan va unda ish beradigan mazkur moslashuvchan Xitoy strategiyalari, ayniqsa, G'arb siyosatchilari e'tiboridan chetda qolmoqda.

Pirovardida, loyiha Xitoyning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni haqidagi tushuncha va munozaralarni sezilarli darajada kengaytirishga hamda innovatsion siyosat g'oyalari ishlab chiqishga qaratilgan. Bu mahalliy o'yinchilarga Xitoyning quvvatini o'z jamiyat va iqtisodiyotlarini qo'llab-quvvatlashga yanada manzilliroq yo'naltirishga yordam berishi, butun dunyo bo'ylab, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda G'arb ishtiroki samaradorligini oshirish bo'yicha Xitoy tajribasidan saboq olish, Xitoyning o'z siyosat jamoasiga Xitoy tajribasining xilma-xilligidan saboq olishga ko'maklashishi va ehtimoliy ziddiyatlarni kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

*Evan A. Feigenbaum,
Xalqaro tinchlik uchun Karnegi jamg'armasi tadqiqotlar
bo'yicha vitse-prezidenti*



Kirish

Avvaldan Xitoy Markaziy Osiyoni nisbatan barqaror hudud deb hisoblab kelgan. Xavfsizlik sohasida Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar asosan rasmiy diplomatik kanallar, ikki tomonlama kelishuvlar va Shanxay hamkorlik tashkilotining institutlashgan mexanizmlari orqali rivojlangan. Xitoy terrorizmga qarshi kurash, harbiy o‘quv mashg‘ulotlari va razvedka ma‘lumotlarini almashish kabi sohalarda mintaqadagi hukumatlar bilan hamkorlik qilgan.¹ Bundan tashqari, Xitoy + Markaziy Osiyo sammiti va Global xavfsizlik tashabbusi kabi xalqaro forumlar doirasida Xitoy mintaqa bilan xavfsizlik bo‘yicha ham an’anaviy, ham noan’anaviy yo‘nalishlardagi hamkorlikni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.²

Xavfsizlik sohasida davlatlararo ikki tomonlama yaqin munosabatlarga qaramay, so‘nggi yillarda Xitoy xususiy qo‘riqlash kompaniyalarining (XQK) Markaziy Osiyodagi ishtiroki sezilarli darajada kengaydi. Birinchi navbatda, bozor talabi, mahalliy qonunchilik tizimining o‘ziga xosliklari va Xitoy korxonalari mintaqada to‘qnash kelayotgan xavfsizlik muammolariga javoban yuz berayotgan bu hodisa, o‘z navbatida, Xitoy hukumatiga, agar xohlasa, mintaqada o‘z qudratini namoyish etish imkoniyatini berishi mumkin.

Kelib chiqishi va rivojlanishi

2000-yilda Xitoy hukumati tomonidan joriy etilgan “Tashqariga chiqish” (走出去) siyosati Xitoy davlat korxonalarini xorijiy mamlakatlarda o‘z faoliyatini kengaytirishga va natijada yanada ko‘proq xodimlarini xorijda ishga joylashtirishga faol rag‘batlantirdi. Bu siyosiy jihatdan beqaror mintaqalarda Xitoy fuqarolariga hujumlarning sezilarli darajada ortishi bilan birga kechdi. 2004-yilda Afg‘onistonda yuz bergan o‘n bir nafar

xitoylik yo‘l muhandisining fojiali o‘limi, 2007-yilda Pokistonda uch nafar xitoylik ishchilarga qarshi uyushtirilgan hujum, 2012-yilda Sudan va Misrda xitoylik ishchilarning o‘g‘irlanishi va boshqa shunga o‘xshash voqealar shular jumlasidan.³

Xitoy XQKlarining xorijiy mamlakatlarda o‘sishi va kengayishi ushbu jarayonlarga tabiiy javob bo‘lishi mumkin. 2000-yillarning o‘rtalarida o‘z xizmatlari, shu jumladan, xorijda faoliyat yurituvchi Xitoy davlat korxonalarini qurolli himoya qilish xizmatini taklif etuvchi professional xususiy firmalar paydo bo‘ldi. 2018-yil holatiga ko‘ra, Xitoyda 8200 dan ortiq XQK ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ular jami 5 millionga yaqin kishini ish bilan ta‘minlagan. Bu kompaniyalarning o‘ttizdan ortig‘i Xitoy chegaralaridan tashqarida, asosan, Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda faoliyat yuritayotgan edi.⁴

Xitoyning Markaziy Osiyoga investitsiyalari ko‘payishi fonida Xitoy kompaniyalari xavfsizlik bilan bog‘liq kutilmagan muammolarga duch keldi. Ayrim vaziyatlarda mahalliy xavfsizlik kuchlari himoyasiz qolgan Xitoy kompaniyalari himoyaga muhtoj ahvolda tushib qoldi. 2014- va 2019-yillarda Qirg‘izistondagi neftni qayta ishlash zavodlari va oltin konlarida xitoylik ishchilar va mahalliy aholi o‘rtasida yuz bergan to‘qnashuvlar, 2016-yilda Xitoyning Bishkekda elchixonasini o‘z joniga qasd qilish orqali portlatishga urinish, Qirg‘iziston va Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan Xitoyga qarshi bir qator norozilik namoyishlari singari voqealar ushbu muammolarni yaqqol ko‘rsatib berdi. Bu esa Xitoy kompaniyalarini XQKlarni yollashga undadi.⁵

Markaziy Osiyo ishlari bo‘yicha Oxus jamiyatining (Oxus Society for Central Asian Affairs) 2020-yilgi hisobotida mintaqada faoliyat yuritayotgan, jumladan, obyektlarni qurollangan va qurollanmagan holda himoya qilish, xavfsizlikni ta‘minlash masalasida maslahatlar, xavfsizlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish, sug‘urta xizmatlari ko‘rsatish va logistik ko‘mak berish kabi turli xil xizmatlarni taklif qiluvchi kamida oltita

Xitoy XQK aniqlangan.⁶ Hisobot e'lon qilinganidan beri ayrim firmalar mintaqadagi ofislarini yopgan yoki faqat muddatli shartnomalar asosida xizmat ko'rsata boshlagan.

Ushbu tashkilotlar va boshqa Xitoy kompaniyalarini farqlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan chalkashliklar tufayli mintaqada Xitoy XQKlarining mavjud yoki yo'qligini aniqlash qiyin. Markaziy Osiyodagi XQKlar faoliyati ko'pincha qo'riqlash bilan bog'liq ba'zi xizmatlarni ko'rsatuvchi boshqa sohalardagi kompaniyalar faoliyatiga o'xshash. Masalan, neft konlariga xavfsizlikni nazorat qilish uskunalarini taklif qiluvchi Beijing Huaxun Weida Communication Electronic Technology telekommunikatsiya firmasi shular jumlasidandir.⁷

Mahalliy xususiyatlar

So'nggi yillarda Xitoyning Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalasiga bo'lgan strategik yondashuvi mintaqadagi noan'anaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashga o'zgardi. Bu esa odatiy harbiy kuchlarning imkoniyatlari bilan kifoyalanmaydigan maxsus javob choralarini talab qiladi. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda mahalliy qonunchilik talablari doirasida faoliyat olib borayotgan Xitoy qo'riqlash firmalarining biznes yondashuvlari Xitoy hukumatining to'g'ridan-to'g'ri ta'siridan ko'ra, bozor talabiga asoslangan xatti-harakatdek tasavvur uyg'otadi. Shunga qaramay, ushbu tahlil faqat ochiq manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi va bu firmalarning boshqa ehtimoliy maqsadlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Qirg'iziston

Qirg'iziston xitoylik ishchilar bilan bog'liq ko'plab hodisalar va Xitoyga qarshi norozilik namoyishlari bilan ajralib turadi. Bu esa mamlakatdagi Xitoy kompaniyalari orasida qo'riqlash xizmatlariga bo'lgan talabni yuzaga

keltirgan. Qolaversa, Qirg'iziston qonunchiligi (mintaqadagi ayrim boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq) xorijiy XQKlar xizmatlaridan foydalanishga ruxsat beradi.⁸ Bu ikki omil Qirg'iziston hududida Xitoy qo'riqlash firmalarining keng ko'lamdagi faoliyatiga sabab bo'lishi mumkin.

Xitoy harbiy va hukumat tashkilotlarining sobiq amaldorlari tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan Zhongjun Junhong Group (中军军弘集团)⁹ hamda China Security and Protection Group (中安保实业集团有限公司) Qirg'izistonda o'z filiallarini ochgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda Zhongjun Junhong Group Qirg'izistonda mahalliy XQK bilan hamkorlikda Haiwei Security Service kompaniyasini tashkil etgan. Bu kompaniya Qirg'iziston hukumatidan qurolli himoya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha hamkorlik qilish huquqini beruvchi litsenziya olgan.¹⁰ Xuddi shu tarzda, 2017-yilda China Security and Protection Group Qirg'izistonda mahalliy XQKni sotib olib, Security Associated kompaniyasini tashkil etgan.¹¹ Bu kompaniya qurolli himoya, xavfsizlik xodimlarini treningdan o'tkazish, kinologiya, va raqamli xavfsizlik kabi keng qamrovli xizmatlarni taklif qiladi.¹² Ta'kidlash joizki, kompaniya "jismoniy tahdidlar, yo'l-transport hodisalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan bog'liq muammolar" yuzaga kelganda tezkor javob berish guruhiga ega ekanligi bilan diqqatga sazovor.¹³ Haiwei Security Service ham, Security Associated ham mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi va katta miqdordagi transport hamda qo'riqlash vositalariga ega.

Qozog'iston

Qozog'istonda 2022-yil yanvar oyida Xitoyga qarshi kayfiyatning kuchayishi va 200 dan ortiq odamning o'limiga olib kelgan siyosiy tartibsizliklar¹⁴ (garchi Xitoy fuqarolari yoki aktivlariga zarar yetmagan bo'lsa-da) Xitoy korxonalarida qo'shimcha qo'riqlash xizmatlariga bo'lgan talabni yuzaga keltirgan bo'lishi mumkin.



Shunga qaramay, Qozog‘iston qonunchiligi chet el xususiy qo‘riqlash firmalari yoki chet el ishtirokidagi XQKlarning mamlakat hududida faoliyat yuritishini taqiqlaydi.¹⁵

Natijada, Xitoy XQKlarining mamlakatdagi faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavfsizlikni ta‘minlashdan boshqa xizmatlar bilan cheklangan. Masalan, 2018-yilda Xitoyning Frontier Services Group (FSG) qo‘riqlash kompaniyasi Olmaotada o‘z ofisini ochdi hamda Maleth Aero havo logistika kompaniyasi orqali “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi loyihalari uchun havo transporti orqali tashish va favqulodda qutqaruv xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullandi.¹⁶ 2020-yil dekabr oyida FSG Maleth Aero kompaniyasidagi ulushini sotdi va 2021-yil holatiga ko‘ra, kompaniyaning faoliyati Qozog‘istondagi o‘ttizdan ortiq Xitoy kompaniyalari uchun mamlakatdagi xavfsizlik holati bo‘yicha onlayn xavfsizlik o‘quv kurslarini o‘tkazish bilan cheklangan edi.¹⁷

Xitoyning boshqa XQKlari ham Qozog‘iston bozoriga kirishga urinib ko‘rishdi. 2018-yilda China Shield Security Group (华盾安保集团) Qozog‘istondagi “Bir kamar, bir yo‘l” loyihalari doirasida qo‘riqlash operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish uchun Qozog‘istonning Kuzet XQK bilan strategik hamkorlik bitimini imzoladi.¹⁸ Shundan so‘ng, 2023-yil sentabr oyida Xitoyning HXZA (华信中安) kompaniyasi Qozog‘istonning KazMunayGaz neft va gaz davlat tashkilotining sho‘ba korxonasi, Qozog‘iston-Xitoy neft quvuri xavfsizligini ta‘minlash uchun mas‘ul KMG-Security XQK bilan hamkorlik memorandumini imzoladi.¹⁹ Kelishuv Qozog‘istondagi asosiy quvurlar va muhim infratuzilmalarni xavfsizlik xatarlari va terrorchilik harakatlaridan himoya qilish bo‘yicha hamkorlikdagi sa‘y-harakatlarni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘zaro pilot loyihasi amalga oshirish rejalashtirilgan.²⁰ HXZA quvurning 50 foiz ulushiga egalik qiluvchi Xitoy davlat neft kompaniyasi tomonidan jalb qilingan bo‘lishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas.

O‘zbekiston

O‘zbekistonning qo‘riqlash xizmatlariga oid qonunchiligi bunday xizmatlarni ko‘rsatish uchun faqatgina milliy huquqni muhofaza qilish organlariga ruxsat beradi va xususiy qo‘riqlash korxonalarining har qanday shaklda faoliyat yuritishini qat’iy taqiqlaydi.²¹ Bu O‘zbekistondagi Xitoy XQKlari uchun jiddiy qiyinchilik tug‘diradi. China Security Technology Group (中国安保技术集团) tomonidan ba‘zi operatsiyalar amalga oshirilgani haqida ma‘lumotlar bo‘lsa-da, uning xizmatlari uchinchi tomon kelishuvlari orqali amalga oshiriladigan sug‘urta takliflari bilan cheklangan.²²

Hozirgi vaqtda Xitoy XQKlarining O‘zbekistonda o‘qitish yoki logistika sohasida yordam ko‘rsatishiga talab mavjud yoki yo‘qligi yuzasidan asoslangan ma‘lumotlar mavjud emas. Bu O‘zbekistonda Xitoyga qarshi kayfiyat yoki norozilik harakatlari kuzatilmaganligi va natijada mamlakatda Xitoy korxonalari uchun nisbatan xavfsiz muhit yaratilgani bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Turkmaniston va Tojikiston

Turkmaniston va Tojikistonda Xitoy XQKlarining mavjud emasligi ularga talab yo‘qligi bilan ham izohlanishi mumkin. Har ikki davlatda ham rivojlanayotgan ichki xususiy xavfsizlik bozori tahsinga sazovor bo‘lishiga qaramay, ularda mamlakat hududida xorijiy XQKlarning faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar mavjud emas. Biroq, ehtimol, Turkmaniston va Tojikistonda hukm surgan nisbiy barqarorlik tufayli Xitoy korxonalari o‘zlarining xavfsizlik ehtiyojlari uchun asosan mahalliy XQKlarni jalb qilgandirlar. Turkmanistonda atigi yigirma ikkita Xitoy kompaniyasi faoliyat yuritadi va ulardan birortasi qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatayotgani haqida juda kam dalillar mavjud.²³ Biroq Xitoy qo‘riqlash firmalari Tojikiston bozoriga kirishga qiziqish bildirgan boshlagan. Masalan, China Shield Security Group yaqinda o‘zining sho‘ba

korxonasi Three Lions International (三狮国际) orqali Tojikistonning Red Line XQK bilan strategik hamkorlikni yo'lga qo'ydi.²⁴

Biroq ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, Tojikiston hali ham Xitoy XQKlari tomonidan o'rganilmaganligicha qolmoqda. Tojikistonda Xitoy kompaniyalaridan Xitoy xavfsizlik xizmatlariga talabning yo'qligi mamlakatdagi harbiylashtirilgan inshootlarda Xitoy xalq qurolli politsiyasi (XXQP) ning mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu ham Xitoy investitsiyalarini himoya qilishga yordam beradi.²⁵

Strategik oqibatlari

Xitoy hukumatining rasmiy pozitsiyasi Pekinning xorijdagi manfaatlarini himoya qilishning o'ta muhimligini ta'kidlaydi. Xitoy Prezidenti Si Szinpin Xitoyning xorijdagi manfaatlarini himoya qilish mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va milliy xavfsizligining asosiy elementi ekanligini alohida qayd etib o'tgan.²⁶ Qolaversa, bu g'oya Xitoyning xavfsizlik sohasiga oid so'nggi me'yoriy hujjatlarida, jumladan, 2015-yilgi Milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonunda, 2019-yilgi Mudofaa strategiyasining Oq kitobida va 2022-yilgi Global xavfsizlik tashabbusida bir necha bor tilga olib o'tilgan.²⁷

Shunga qaramay, Xitoyning aralashmaslik siyosati Pekinning xorijiy davlatlarning ichki ishlariga aralashish yoki an'anaviy qo'shinlarni joylashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Xitoy qo'riqlash kompaniyalarining Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotgani ham Pekinning mintaqadagi strategik xavfsizlik borasidagi xavotirlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu firmalar Pekinga uning ochiqchasiga e'lon qilingan aralashmaslik siyosati va "tinchlik yo'li bilan yuksalish" majburiyatiga zid bo'lishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun vositalarni taqdim etadi.²⁸

2009-yilda Xitoy hukumati Xavfsizlik va qo'riqlash xizmatlarini boshqarish to'g'risidagi nizomni qabul qildi. Ushbu nizom Xitoyning qurolli himoyani ta'minlovchi XQKlariga davlat egaligini qonuniylashtiradi.²⁹ 2018-yildagi Xitoydan moliyalashtiriladigan xorijdagi korxonalar, muassasalar va xodimlar xavfsizligini boshqarish to'g'risidagi nizom Xitoy qo'riqlash firmalarini Jamoat xavfsizligi vazirligi (JXV) tasarrufiga o'tkazdi. Bu "Bir kamar, bir yo'l" integratsiyalashgan milliy xavfsizlik razvedka tizimi (一带一路国家安全情报融合制度体系) doirasida bo'lib, mazkur tizim mezbon mamlakatlardagi xavfsizlik vaziyati haqidagi razvedka ma'lumotlarini to'plash va almashish maqsadida tashkil etilgan.³⁰ JXV Xitoyning Markaziy Osiyodagi joriy politsiya/harbiylashtirilgan hamkorlik strategiyasida markaziy rol o'ynashini hisobga olsak, XQKlar (XXQP kabi) Xitoyning manfaatlarini himoya qilish mexanizmi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, Xitoyning Markaziy Osiyodagi razvedka strategiyasida mahalliy davlat xavfsizlik idoralari bilan hamkorlik kanallari orqali ma'lumot olish ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa-da, u, shuningdek, Xitoy Davlat xavfsizlik vazirligi (DXV) tomonidan boshqariladigan inson razvedkasidan ham foydalanadi. U maxfiy ravishda razvedka ma'lumotlarini to'plash uchun, DXV xodimlarini joylashtirishdan ko'ra, qimmatli ma'lumotlarni olishda ehtiyotkor va xavfsizroq yondashuvni taklif qilib, muayyan haq evaziga mahalliy shaxslarni yollaydi. Bunga 2019-yilda Xitoyga josuslik qilishda ayblanib sudlangan va yaqinda shartli ravishda ozod qilingan KGBning sobiq agenti va davlatga qarashli Qozog'iston strategik tadqiqotlar institutining Xitoy bo'yicha yetakchi mutaxassisi Konstantin Siroyejkin yorqin misol bo'la oladi.³¹

Biroq bir qator ekspertlarning ta'kidlashicha, Qozog'istonda 2022-yilgi norozilik namoyishlari "Xitoyning mintaqani yaxshi tushunmasligi" va "zarur razvedka ma'lumotlarining yetishmasligi"ni, bu esa



Xitoyning mamlakatda asosan mahalliy razvedka vositalaridan foydalanganligi samarasiz bo'lganini ko'rsatadi.³² Ushbu hodisa Pekin uchun Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida Xitoy qo'riqlash xizmatlarining mavjud emasligi natijasida to'qnash kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni ta'kidlab o'tgan bo'lishi mumkin. Bu Pekinni razvedka ma'lumotlarini to'plashda to'g'ridan-to'g'ri yondashuvga undagan. The Wall Street Journal nashrining xabar berishicha, Xitoy hukumati Qozog'iston rahbarlarini mamlakat ichida Xitoy XQKlarini joylashtirishga ruxsat berishga ko'ndirishga harakat qilgan.³³

Bundan tashqari, xususiy firmalar kirib kelishining ehtimoliy rad etilishi Pekin uchun siyosiy ta'sir o'tkazishda jozibador vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo bo'ylab Xitoy XQKlari "Bir kamar, bir yo'l" loyihalarini qo'riqlash, mahalliy qo'shinlarni tayyorlash va mezbon mamlakatlar uchun harbiy infratuzilmani qurishda ishtirok etadi.³⁴ Ushbu strategik sa'y-harakatlarni faqat bozor kuchlari bilan bog'lash mumkin emas va Pekinning to'g'ridan-to'g'ri ruxsatini talab qiladi. Agar sharoit talab qilsa yoki imkon bersa, Pekin Markaziy Osiyo davlatlariga xususiy qo'riqlash kompaniyalarini xuddi shunday tarzda joylashtirishi mumkin.

Xulosa

"Tashqariga chiqish" siyosati va "Bir kamar, bir yo'l" tomonidan qo'llab-quvvatlangan Xitoy XQKlarining rivojlanishi ularning bozor talablariga va Xitoyning xorijda faoliyat yuritayotgan korxonalarini duch keladigan xavfsizlik muammolariga moslashishini ko'rsatdi. Ularning Qirg'iziston va Qozog'istondagi faoliyat ko'lami mahalliy qonunchilik qoidalariga va Xitoy korxonalarining talablariga javob beradi. Aksincha, Turkmaniston va Tojikistonda Xitoy xavfsizlik xizmatlariga talab mavjud emas, biroq huquqiy cheklovlar yo'qligi sababli Xitoy XQKlari uchun

potensial imkoniyatlarni ochib beradi. O'zbekistonda talabning cheklanganligi va qat'iy davlat huquqiy me'yorlari ularning kirib kelishiga to'sqinlik qiladi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda Xitoy xususiy qo'riqlash biznesining mavjudligi Xitoyning noan'anaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashda ko'p qirrali strategik yondashuvini aks ettiradi. U Xitoyning zamonaviy xavfsizlik diplomatiyasi, politsiya/harbiylashtirilgan hamkorlik va yaqinda qabul qilingan Global xavfsizlik tashabbusiga mos keladi. Shu nuqta nazardan, ushbu subyektlar Pekinning geosiyosiy kun tartibini ilgari surishda jozibador vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xitoyning mintaqadagi ta'siri o'sishda davom etar ekan, ushbu yashirin soqchilarning roli mintaqaviy dinamikaning muhim jihati bo'lib qoladi.

Minnatdorchilik

Ushbu nashrda bildirilgan fikrlar, talqinlar va xulosalar faqat muallifgagina tegishli bo'lib, Karnegi xalqaro tinchlik jamg'armasi, Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti yoki Janubiy Illinoys universitetining rasmiy siyosati yoki pozitsiyalarini aks ettirmaydi. Muallif xalqaro tinchlik uchun Karnegi jamg'armasi jamoasiga bebaho tahririy yordami uchun samimiy minnatdorlik bildiradi.

Muallif haqida

Odil Gafarov – Ilmiy xodim, Southern Illinois universitetining PhD talabasi

Endnotes

- 1 “Background and Mission,” Regional Anti-Terrorist Structure of the Shanghai Cooperation Organization, accessed July 23, 2024, <https://ecrats.org/en/about/history/>.
- 2 “Working Together for a China-Central Asia Community With a Shared Future Featuring Mutual Assistance, Common Development, Universal Security, and Everlasting Friendship,” Ministry of Foreign Affairs of the People’s Republic of China, May 19, 2023, https://www.fmprc.gov.cn/mfa_eng/wjdt_665385/zyjh_665391/202305/t20230519_11079941.html; and “The Global Security Initiative Concept Paper,” Ministry of Foreign Affairs of the People’s Republic of China, February 21, 2023, https://www.fmprc.gov.cn/mfa_eng/wjbxw/202302/t20230221_11028348.html.
- 3 Carlotta Gall, “Taliban Suspected in Killing of 11 Chinese Workers,” New York Times, June 11, 2004, <https://www.nytimes.com/2004/06/11/world/taliban-suspected-in-killing-of-11-chinese-workers.html>; “Gunmen Kill Three Chinese Workers in Pakistan,” Reuters, August 8, 2007, <https://www.reuters.com/article/idUSISL273531/>; and Peter Ford, “Why Chinese Workers Are Getting Kidnapped Abroad,” Christian Science Monitor, February 1, 2012, <https://www.csmonitor.com/World/Asia-Pacific/2012/0201/Why-Chinese-workers-are-getting-kidnapped-abroad>.
- 4 Cheng Xizhong, “Overseas Security Must Keep Up With the Pace of ‘Belt and Road’ Construction,” Charhar Institute, July 18, 2018, http://www.charhar.org.cn/uploads/file/20180718/20180718110654_5155.pdf.
- 5 Chris Rickleton, “Kyrgyzstan: Chinese Workers Deported After Riot at Strategic Refinery,” EurasiaNet, July 3, 2014, <https://eurasianet.org/kyrgyzstan-chinese-workers-deported-after-riot-at-strategic-refinery>; RFE/RL’s Kyrgyz Service, “Dozens Injured as Locals Clash With Chinese Mining Company Workers in Kyrgyzstan,” August 6, 2019, <https://www.rferl.org/a/dozens-injured-as-locals-clash-with-chinese-mining-company-workers-in-kyrgyzstan/30094924.html>; Tom Phillips, “Suicide Bomber Attacks Chinese Embassy in Kyrgyzstan,” Guardian, August 30, 2016, <https://www.theguardian.com/world/2016/aug/30/bomb-attack-chinese-embassy-kyrgyzstan-bishkek>; Isabelle DeSisto, “Competing for Cake Crumbs: Why Chinese Mining Leads to Conflict in Kyrgyzstan but Not Tajikistan,” Central Asia Program, <https://centralasiaprogram.org/competing-cake-crumbs-chinese-mining-leads-conflict-kyrgyzstan-tajikistan/>; and Abdujalil Abdurasulov, “Kazakhstan’s Land Reform Protests Explained,” BBC News, April 28, 2016, <http://www.bbc.com/news/world-asia-36163103>.
- 6 Niva Yau and Dirk van der Kley, “The Growth, Adaptation and Limitations of Chinese Private Security Companies in Central Asia,” Oxus Society for Central Asian Affairs, October 13, 2020, <https://oxussociety.org/wp-content/uploads/2020/10/the-growth-adaptation-and-limitations-of-chinese-private-security-companies-in-central-asia.pdf>.
- 7 “Huaxun Weida,” Beijing Huaxun Weida Communication Electronic Technology Co., Ltd., archived July 8, 2013, at the Wayback Machine, <https://web.archive.org/web/20130708183836/http://www.huaxun.com/cn/about.aspx?faid=147>.
- 8 “On Private Detective and Security Activity in the Kyrgyz Republic,” Law of the Kyrgyz Republic, July 1, 1996, <https://cbd.minjust.gov.kg/642/edition/1220536/ru>.
- 9 “About Us,” Zhongjun Junhong Group, archived June 9, 2023, at the Wayback Machine, <https://web.archive.org/web/20230609060705/http://www.osgjh.com/en/about/15.html>.
- 10 “Overseas Security Department,” China Security & Protection Group Co., Ltd., accessed July 15, 2024, <http://www.cspb.com.cn/OurService/index/385>.
- 11 Martina Mengye, “中国民营安保公司在吉国‘落地生根’ [Chinese Private Security Companies Taking Root in Kyrgyzstan],” Silk Road New Observation, August 17, 2016, <http://2016cn.siluxgc.com/html/C1413/201608/531466397323047992.shtml>.
- 12 Yu Wanli and Jiang Qianlu, “全球安保行业的发展状况与业态特征 [Global Security Industry Development Status and Format Features],” Public Diplomacy Quarterly, 2019, https://www.thepaper.cn/newsDetail_forward_4158256.
- 13 Kompaniyaning veb-saytida treninglar haqida batafsil ma’lumot berilmagan, biroq nodavlat xavfsizlik xizmati xodimlarini o’qitish haqida so’z boradi. Shuningdek, saytda ushbu kursni o’qitish uchun kompaniyaga berilgan litsenziyaning fotosurati ham joylashtirilgan. “Certified Training of Employees,” Security Associated, accessed July 23, 2024, <http://www.securitykg.com/index.php/services/9-services2>.
- 14 “24/7 Rapid Response Team,” Security Associated, accessed July 16, 2024, <http://www.securitykg.com/index.php/services/13-services6>.
- 15 “Kazakhstan Authorities Raise Death Toll From Unrest to 225,” Guardian, January 16, 2022, <https://www.theguardian.com/world/2022/jan/16/kazakhstan-authorities-raise-death-toll-from-unrest-to-225>.
- 16 “On Security Activities,” Law of the Republic of Kazakhstan, October 19, 2000, https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1020355&pos=5;-106#pos=5;-106.
- 17 “Frontier Services Group Gives Keynote Speech at the First ‘Belt and Road’ Medical Rescue Conference,” Frontier Services Group, August 31, 2018, <http://www.fsgroup.com/en/news/show-420.html>.
- 18 “2022 Annual Report,” Frontier Services Group, 2022, <https://doc.irasia.com/listco/hk/frontier/annual/2022/ar2022.pdf>; and “先丰为驻哈萨克斯坦中资企业开展安全培训

- [FSG Conducts Security Training for Chinese Enterprises in Kazakhstan],” Frontier Services Group, February 26, 2021, <http://www.fsgroup.com/news/show-604.html>.
- 19 Liu Wenbin, “中安华盾与哈萨克斯坦库捷特安保公司签署战略合作框架协议 [China Shield Signs Strategic Cooperation Framework Agreement with Kazakhstan Kuzet Security Company],” July 16, 2018, Zhongan Huadun, <https://mp.weixin.qq.com/s/KakoT6zEDoUcvFBJoGWlMA>.
- 20 “Новый формат международного сотрудничества [New Format of International Cooperation],” KMG Security, October 2, 2023, <https://www.kmg-s.kz/rus/novosti/?cid=0&rid=236>.
- 21 “TOO «KMG-Security» и охранная компания «HXZA» (KHP) готовы развивать сотрудничество [‘KMG-Security LLP’ and Security Company ‘HXZA’ (PRC) Are Ready to Develop Cooperation],” KMG-Security, November 10, 2023, <https://www.kmg-s.kz/rus/novosti/?cid=0&rid=244>.
- 22 “On Security Activities,” Law of the Republic of Uzbekistan, April 28, 2022, <https://lex.uz/ru/docs/6066686>.
- 23 Yau and van der Kley, “Growth, Adaptation, and Limitations”; “保险服务 [Insurance Services],” China Security Technology Group, archived September 28, 2023, at the Wayback Machine, <https://web.archive.org/web/20230928010853/http://cstghk.com/Insurance.html>.
- 24 “土库曼斯坦中资企业 [Chinese Enterprises in Turkmenistan],” Huanenet, June 6, 2023, <https://www.huanenet.com/tkmst/1836.html>.
- 25 Three Lions International, “华盾集团密集开展‘安保外交’, 精准发力海外市场 [China Shield Security Group Intensively Engages in ‘Security Diplomacy,’ Precisely Targeting Overseas Markets],” October 30, 2023, <https://baijiahao.baidu.com/s?id=1781157564040968982&wfr=spider&for=pc>; and “塔吉克斯坦‘红线集团’总经理沙拉夫·哈比博夫先生访问华盾集团 [Mr. Sharif Habibov, General Manager of Tajikistan’s ‘Red Line Group,’ Visits Huadun Group],” October 27, 2023, <https://baijiahao.baidu.com/s?id=1780888024825584151&wfr=spider&for=pc>.
- 26 Jennifer Murtazashvili, “China’s Activities and Influence in South and Central Asia,” Carnegie Endowment for International Peace, May 17, 2022, <https://carnegieendowment.org/2022/05/17/china-s-activities-and-influence-in-south-and-central-asia-pub-87146>.
- 27 “Xi Jinping Presided Over the First Meeting of the 19th Central National Security Committee and Delivered an Important Speech,” Xinhua News, April 17, 2018, https://www.gov.cn/xinwen/2018-04/17/content_5283445.htm.
- 28 “National Security Law,” National People’s Congress of the People’s Republic of China, 2015, https://www.gov.cn/zhengce/2015-07/01/content_2893902.htm; “China’s National Defense in the New Era,” Ministry of National Defense of the People’s Republic of China, July 24, 2019, <http://eng.mod.gov.cn/xb/Publications/WhitePapers/4846452.html>; and “The Global Security Initiative Concept Paper,” Ministry of Foreign Affairs of the People’s Republic of China, February 21, 2023, https://www.fmprc.gov.cn/mfa_eng/wjbxw/202302/t20230221_11028348.html.
- 29 “Full Text: China’s National Defense in the New Era,” State Council of the People’s Republic of China, last updated July 24, 2019, https://english.www.gov.cn/archive/whitepaper/201907/24/content_WS5d3941ddc6d08408f502283d.html.
- 30 “Regulation on the Administration of Security and Guarding Services,” Order No. 564, State Council of the People’s Republic of China, “2009,” http://www.gov.cn/zwgk/2009-10/19/content_1443395.htm.
- 31 “Regulations on the Safety Management for Overseas Chinese-funded Enterprises, Institutions, and Personnel,” Ministry of Commerce of the People’s Republic of China, 2018, <http://images.mofcom.gov.cn/hzs/201803/20180323112639296.pdf>.
- 32 Thomas Grove, “A Spy Case Exposes China’s Power Play in Central Asia,” Wall Street Journal, July 10, 2019, <https://www.wsj.com/articles/a-spy-case-exposes-chinas-power-play-in-central-asia-11562756782>; and RFE/RL’s Kazakh Service, “Leading Kazakh Sinologist Jailed on Treason Charge Released on Parole,” Radio Free Europe/Radio Liberty, April 5, 2024, <https://www.rferl.org/a/kazakhstan-syroyezhkin-treason-parole/32892748.html>.
- 33 Igor Denisov, “After Kazakhstan Crisis, China Will Reassess Its Influence in Central Asia,” Diplomat, January 18, 2022, <https://thediplomat.com/2022/01/after-kazakhstan-crisis-china-will-reassess-its-influence-in-central-asia/>; and Benno Zogg, “Observer Now, Beneficiary Later: China and the Unrest in Kazakhstan,” Diplomat, January 21, 2022, <https://thediplomat.com/2022/01/observer-now-beneficiary-later-china-and-the-unrest-in-kazakhstan/>.
- 34 Grove, “A Spy Case Exposes China’s Power Play.”